BOZOR MUNOSABATLARIGA O‘TISH DAVRIDA UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR (1991-2000-YILLARDA FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Nosirova Dilraboxon Ikrom qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1991-2000-yillarda mamlakatimizda yuz bergan davlat mulkidan xususiylashtirish jarayoniga o‘tish, jumladan umumiy ovqatlanish muasssasalarida yuz bergan o‘zgarishlar, dastlabki xususiy oshxona va kafelar faoliyati va ushbu tizimdagi ijtimoiy-iqtisodiy transormatsiyalar va unga mahalliy aholining munosabati, xizmat ko‘rsatishdagi yangiliklarning kirib kelishi, milliy va zamonaviy ovqatlanish madaniyatining uyg‘unlashuvi aks etgan.*

Kalit so‘zlar: *bozor iqtisodiyoti, xususiylashtirish, narx erkinligi, yangicha xizmat ko‘rsatish, erkin raqobat.*

KIRISH.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi O‘zbekiston tarixida tub burilishlar davri bo‘ldi. 1991-yilda O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi. Ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo va iste’mol bozorining tarkibiy tuzilmasida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, aholi kundalik ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan umumiy ovqatlanish tizimi mazkur transformatsion jarayonlarning markazida bo‘ldi.

Sobiq ittifoq davrida markazlashgan reja asosida faoliyat yuritgan oshxonalar, choyxonalar va restoranlar mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich xususiylashtirildi, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari o‘zgardi, bozor talabi va raqobat muhiti ta’sirida yangi xizmat ko‘rsatish uslublari shakllandi. 1990-yillar davomida inflyatsiya jarayonlari, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi va aholining real daromadlari pasayishi umumiy ovqatlanish sohasining faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati mazkur tarmoqning yangicha iqtisodiy sharoitda qayta tashkil topishiga zamin yaratdi.

Mazkur jarayonlar ayniqsa Farg‘ona vodiysi hududida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ldi. Aholi zichligi yuqori, qadimiy savdo va hunarmandchilik an’analari rivojlangan Farg‘ona vodiysi iqtisodiy makon sifatida bozor munosabatlariga moslashishda alohida tajriba maydoniga aylandi. Hududda joylashgan Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida umumiy ovqatlanish korxonalari soni, mulkchilik shakli, xizmat ko‘rsatish sifati va assortimenti jihatidan sezilarli tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Ushbu maqolada 1991–2000-yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida Farg‘ona vodiysi misolida umumiy ovqatlanish tizimida yuz bergan tarkibiy o‘zgarishlarni tarixiy-iqtisodiy tahlil qilish, ularning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlarini aniqlash hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini baholashdan iborat.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Umumiy ovqatlanish - uydan tashqarida tayyorlanadigan taomlar yoki mahsulotlar nazarda tutiladi. Umumiy ovqatlanish bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi turmush tarziga qiziqish kun sayin o‘sib bormoqda.

1985-yilda Sobiq Ittifoqqa M.S. Gorbachev kelishi bilan unga qarashli respublikalarda “qayta qurish” siyosatini olib borish boshlangan. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi mamlakatni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy inqirozdan chiqarish edi. Bu islohot avval boshda aholiga umid uyg‘otgan bo‘lsada, keyinchalik Ittifoq respubliklarida, jumladan O‘zbekistonda ham iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirgan. Qayta qurish yillarida O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan sobiq Ittifoqning xomashyo manbai sifatida ko‘rilardi. Bu islohot iqtisodiy imkoniyalarni cheklab, aholi turmush tarziga salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. O‘zbekistonda oziq-ovqat, kiyim-kechak va kundalik ehtiyoj mahsulotlari taqchilligi kuchaydi. Urbanizatsiya jarayoni sustlashdi, qishloq joylarida yashovchi aholining turmush sharoiti yaxshilanmadi. Umumiy ovqatlanish joylariga borish kamayib ketdi, natijada ko‘plab ushbu korxonalar yopildi yoki yaroqsiz holatga kelib qoldi. Ushbu siyosiy vaziyatlar mustaqillika erishish va mamlaktimizning rivojlanishi uchun turtki bo‘lgan omillardan bo‘ldi .

- ***Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).*** Mazkur tadqiqot bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida umumiy ovqatlanish tizimida yuz bergan tarkibiy o‘zgarishlarni tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tarix fanining umumiy ilmiy tamoyillari hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga xos zamonaviy metodlar asosida shakllantirildi.

Avvalo, tadqiqotda **tarixiylik tamoyili** asosiy metodologik yondashuv sifatida qo‘llanildi. Ushbu tamoyil umumiy ovqatlanish tizimining mustaqillikning dastlabki yillaridagi rivojlanishini aniq tarixiy sharoit – ya’ni sobiq markazlashgan xo‘jalik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini berdi. Shu asosda 1991–2000-yillarda Farg‘ona vodiysi hududida faoliyat yuritgan oshxona, choyxona, restoran va boshqa umumiy ovqatlanish muassasalarining tashkil etilishi, faoliyati va iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlar bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Tadqiqotda **tizimli yondashuv (sistemali tahlil)** metodidan foydalanilib, umumiy ovqatlanish tizimi savdo infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganildi. Bu yondashuv orqali mazkur soha faoliyatiga ta’sir ko‘rsatgan iqtisodiy islohotlar, mulkchilik shakllarining o‘zgarishi, xususiy sektorning rivojlanishi, aholining iste’mol madaniyatidagi transformatsiya kabi omillar kompleks tarzda tahlil qilindi. Natijada umumiy ovqatlanish tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ham baholandi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida **qiyosiy-tarixiy metod** qo‘llanilib, mustaqillikning dastlabki davrida umumiy ovqatlanish tizimi faoliyati sobiq sovet davri bilan taqqoslandi. Bu metod yordamida davlatga qarashli umumiy ovqatlanish muassasalari tizimidan xususiy sektor ustuvor bo‘lgan bozor infratuzilmasiga o‘tish jarayoni hamda uning hududiy xususiyatlari ochib berildi. Ayniqsa, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi umumiy ovqatlanish korxonalarining rivojlanish dinamikasi o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda **statistik tahlil usuli** ham muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat statistika ma’lumotlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va arxiv materiallari asosida umumiy ovqatlanish korxonalari soni, xizmat ko‘rsatish hajmi, mulkchilik shakllaridagi o‘zgarishlar hamda aholi iste’mol tuzilmasidagi transformatsiyalar tahlil qilindi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda **manbashunoslik va tarixiy tahlil metodlari** keng qo‘llanildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining iqtisodiy islohotlarga oid normativ-huquqiy hujjatlari, davlat statistika materiallari, hududiy boshqaruv organlari hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida umumiy ovqatlanish tizimining institutsional shakllanishi, xususiy tadbirkorlikning paydo bo‘lishi hamda xizmat ko‘rsatish madaniyatidagi o‘zgarishlar ilmiy jihatdan asoslandi.

Shu tariqa, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar va ilmiy metodlar majmui Farg‘ona vodiysi misolida umumiy ovqatlanish tizimining bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi tarkibiy transformatsiyalarini kompleks tarzda tahlil qilish, ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va hududiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Dunyo miqyosida, 1991-yillardan boshlab, ovqatlanish sohasida tadbirkorlik rivoji bir qator tendensiyalarni keltirib chiqardi. Ya’ni, bozor iqtisodiga o‘tish jarayoni, umumiy ovqatlanish sohasida xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirdi. Sog‘lom ovqatlanish va ekologik mahsulotlarga bo‘lgan talab ortdi. Bu tendensiya o‘rta asrlardan kelib chiqqan an’anaviy ovqatlar va zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirildi. Taom tayyorlashda innovatsiyalar, yangi ovqatlar, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali umumiy ovqatlanish joylarining ko‘payishi kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish xizmati biznes sifatida O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtda muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu jihati bilan muhim ilmiy qiziqish uyg‘otdi va umumiy ovqatlanish xizmatlari bozorini uning faoliyati uchun asos sifatida o‘rganish tadqiqotning dolzarbligini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy iqtisodiyot va aholi daromadlari sezilarli o‘sdi. Shu bilan birga, umumiy ovqatlanish iste'moli talabi va aylanmasi ham asta-sekin o‘sib bordi, bu esa umumiy ovqatlanish sanoatini so‘nggi yillarda O‘zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylantirdi. Oziq-ovqat - bu odamlarning eng muhim ehtiyojidir. Umumiy ovqatlanish sanoati odamlarning salomatligi va turmush darajasi bilan bog‘liq. Ommaviy iste'mol bozorini faollashishi va shahar iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

1991-yilda mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Sovet respublikalarida bo‘lgani kabi yurtimizdagi vaziyat bozor iqtisodiyotiga o‘tishni taqozo qilgan. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish har bir sohaga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Davlat tassarufidagi o‘z faoliyatini olib borayotgan yoki yopilib ketgan umumiy ovqatlanish korxonalari xususiy mulkka aylandi. Bu o‘z navbatida xususiy oshxona va kafelarning ko‘payishiga olib keldi. Bu jarayonga o‘tish bilan narxlar ham talab va taklifga binoan belgilana boshlangan. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish maqsadida davlat monopoliyasini tugatish, bozor infratuzilmasini hamda erkin raqobat muhitini yaratish; savdo, umumiy ovqatlanish, kichik tadbirkorlik obyektlarini xususiylashtirishda shok usulni emas, bosqichma-bosqich amalga oshirish g‘oyasini

ilgari surgan. Xususiylashtrish jarayonida aholining kam ta’minlangan qismini himoya qilish, ishsizlikni oldini olish va narxlarni keskin oshib ketmasligini oldini olish bo‘yicha chora ko‘rish zarurligini alohida ta’kidlagan [1, B. 35-50]. Ushbu davrni boshidan kechirgan bir necha korxonalarga nazar tashlasak: Farg‘ona vodiysidagi mashhur korxonalardan biri “Dastyor fabrika” bo‘lib 1987-yilda ochilgan [2, B.4]. Olingan suhbat natijasiga ko‘ra Qo‘qon shahar umumiy ovqatlanish korxonasiga qarashli fabrika-oshxona ish ish faoliyatini XX asr 80-yillari oxirida boshlagan. Dastlab korxonaning asosiy vazifasi — shahar hududida joylashgan 30 ta maktab, o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, zavod fabrikalar qoshidagi bufet-oshxonalarni sifatli yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu mahsulotlar 8 ta sex ishchi-mutaxassislari tomonidan tayyorlab berilgan. Bular go‘sht, baliq, tovuq, lag‘mon, salqin ichimliklar, ishlov beruvchi issiqlik sexlaridir. Bu yerda chiqitlardan ham maqsadga muvofiq foydalanishga alohida e’tibor berilgan. Aytaylik, go‘shtdan chiqqan suyaklardan issiqlik beruvchi sexda konsentrlashgan sho‘rva tayyorlashgan. Chiqindi suyaklardan esa maxsus sexda suyak uni tayyorlab chiqarilgan. Baliq sexida esa muzlatilgan va tirik baliqlarga birlamchi ishlov berilgan. Yarim tayyor baliq mahsulotlari oshxonalarga jo‘natilgan. U yerda baliq tangachalarini tozalash va kallasini olish mexanizatsiyalashtirilgan holatda amlaga oshirilgan. Lag‘mon sexlari esa oshxonalarni buyurtma bo‘yicha tayyor lag‘mon ugra bilan ta’minlagan. Bu sex oshxonalarni buyurtma bo‘yicha tayyor lag‘mon va ugra bilan ta’minlagan. Bu sexlar to‘la mexanizatsiyalashgan. Xamir qorish, yoyish, ugra kesish uchun fabrika mutaxxasisslari tomonidan yaratilgan uskunlaridan foydalanilgan. Bir kunda 550 kilogramgacha mahsulot ishlab chiqarishgan. Sabzavot sexi esa 9 tonnagacha bo‘lgan sabzavotlarga birlamchi ishlov bergan.

Shuningdek, mevalardan konservalar tayyorlash mumkin bo‘lgan. Idoraga qarashli issiqxonadan 3-4 tonna sitrus mevalari (limon, greyfrukta) keltirib murabbo qilingan. Fabrika hovlisida o‘sadigan gullardan gul murabbosi tayyorlangan. Uzum yaproqlaridan do‘lma uchun barg konservalari tayyorlangan. Issiqlik ishlovi berish sexida maktab, o‘quv yurtlari, oshxona bufetlari uchun kulinariya (oshxonaga oid)mahsulotlari pishirilgan. Ilgari maktab bufetlari bir nechta sexdan shirinliklar olgan bo‘lsa, mustaqillikka erishgach faqat ushbu korxonadan mahsulot olgan. Bu sexda faqat maktab assortimentidagi mahsulotlar chiqarilgan. Ularning vazni kichik bo‘lib maktab o‘quvchilari uchun moslashgan.

Salqinlashtiruvchi ichimliklar bilan birga sexda yoz davomida umumiy ovqatlanish korxonasiga qarashli barcha muzqaymoq sotuvchi mavsumiy tarmoqlarni uzluksiz ta’minlab kelgan. Korxona ishga tushishi munosabati bilan ishlab chiqarishni markazlashtilgan usulda tashkil etish imoni yaratildi. Bu esa nazoratni kuchaytirishga, mahsulot sifatini oshirishga olib keldi. Chiqarilayotgan har turkum mahsulot labaratoriya tomonidan tekshirilib, sifat guvohnomasi bilan chiqarilgan. Sifatsiz mahsulot tayyorlangan bo‘lsa, javobgar shaxsdan undirib olingan. Fabrika ochilishi munosabati bilan oshxonalarda qo‘l mehnati yengillashgan. Korxonalarning sanitariya holati yaxshilangach, ishlab chiqarishda qatnashadigan ishchi kuchi qisqartirilgan. Shuningdek, sabzavot va baliq mahsulotlarini ishlashdan chiqadigan chiqindilar markazlashgan holda shu yerdan olib ketilgan.

“Ishchilarimizni tashkil qilishda kamchiliklar ham bor — deydi korxona egasi Abdujaborov — yozgi mavsumda mahsulotlarni oshxonalarga yetkazib berish uchun maxsus sovutkichli transport vositalari yetarli emas. Fabrika – oshxonani ishga tushirish uchun 1 milion so‘mga yaqin harajat bo‘lgan. Lekin hozirgi vaqtda bu harajatlarni qoplash uchun fabrika to‘la quvvatda ishlagani yo‘q. Chunki shartnoma bo‘yicha tovuq, go‘sht, baliq mahsulotlari yetarli miqdorda yetkazib berilmadi. Bu yilgi mavsumda esa hatto kartoshka ham RSFSRdan yetkazib berilmadi. Natijada fabrikaning ishlash quvvati keskin kamayib ketdi. Ishlab chiqarishda uzilish holatlari bo‘lmoqda. Kelajakda qilinadigan vazifalar ko‘p – korxonani kengaytirish, yangi sexlar ochish, mahsulot turlarini ko‘paytirish kerak. To‘la oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash zarur deb bilamiz. Yangitdan qurilayotgan ulkan ombor-sovuqxonamiz tezroq bitkazilsa, ishimiz yana ham yurishib ketadi” [3, B.4]. Ushbu ma’lumotda korxona egasi Abdujaborov tomonidan ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy muammolar va ularning sabablari ochib berilib, istiqboldagi rejalar – korxonani kengaytirish, yangi sexlar ochish va mahsulot turlarini ko‘paytirish orqali aholining to‘liq oziq-ovqat ehtiyojini ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi, bu esa mavjud muammolarga qaramay, rivojlanish va barqarorlikka intilish borligini ko‘rsatgan.

Umumiy ovqatlanish tarmoqlarining qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish choralarini ko‘rish kabi takliflar umumiy ovqatlanish korxonalarining rivojlanishi va kengayishiga, mijozlar qoniqish darajasini oshirish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga yordam bergan. Bu o‘z navbatida, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishga imkon bergan [4, B.20].

Vodiydagi yana bir katta oshxonalardan birining faoliyatiga nazar tashlasak, Farg‘ona viloyati Toshloq tumani markazidagi “Marhabo” xususiy oshxonasi boshlig‘i L. Rizayev mashhur oshpazlardan biri. 17 yil davomida umumiy ovqatlanish korxonasida ishlagan. 1993-yilda xususiy oshxona ochgan. Dastlab ushbu oshxona davlat sektorida bo‘lib odam kelmay yopilgan. Davlat korxonalarini xususiylashtirish boshlangach ushbu kichik oshxonani L. Rizayev sotib oldi.1995-yil holatiga ko‘ra “Marhabo” oshxonasida 4 nafar asosiy ishchi, ikkita shogird va bitta yordamchi mehnat qilgan. Bu yerda har kuni turli taomlar tayyorlangan. Suyuq taomlari kun ora almashlab turgan. Oshxonada har kuni bir necha turdagi taomlarning har biridan 60-70 kishiga mo‘ljallab tayyorlangan. Mahsulotlarning bir qismi bozordan sotib olingan, qolgani esa umumiy ovqatlanish muassasasidan tayyorlab chiqarilgan. Haftada bitta novvos so‘yilgan, har bir taomga ishlatiladigan massaliq bosh oshpaz tomonidan nazorat qilingan. Oshxona bir oyda 1500-2000 ming so‘m sof foyda bergan. Latif oshpazdan so‘ralganda bir yilda ikkita shogird tayyorlaydi. Uning ta’biri bilan aytganda, shogirdlar ko‘p, lekin pichoqqa sop bo‘ladigani ikkita chiqdi. “Men ikkoviga bor hunarimni berdim. Ular men o‘ylagandek oshpaz bo‘lishdi” – deydi [5, B.3].

Bundan ko‘rinib turbdiki, xususiylashtirishga o‘tishda tadbirkorlar bir qancha qiyinchiliklarga uchragan. Lekin bu jarayon umumiy ovqatlanish tadbirkorligining rivojiga va xizmat ko‘rsatish sohasida yangiliklar kirib kelishi, aholining talab va ehtiyoji asosida taom tayyorlash hamda zamonaviy kafe, restoran, oshxonalarni ko‘paytirish hamda mahsulot va xizmat sifatidagi raqobatni kuchayishi uchun muhim turtki bo‘lgan.

Xorijiy oshxonalar bilan hamkorlik asosida yevropa taomlari va keyinroq fast-food mahsulotlari ham kirib keldi. Jumladan, Farg‘ona vodiysida rus, turk, yapon, koreys va boshqa chet el milliy restoranlari paydo bo‘ldi.

Umumiy ovqatlanish muassasalarining aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish va faoliyatini tashkil etilishi yuzasidan mas’ul muassasalar tomonidan nazorat qilib borilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi matbuot xizmatining xabarlariga ko‘ra, 1995-yilda Respublikadagi o‘quv yurtlari va maktablar huzuridagi oshxona, bufetlarda savdoning tashkil etilishi va soliq to‘lashning ahvoli yuzasidan davlat soliq idoralari xodimlari ommaviy tekshiruvlar o‘tkazgan. Unga ko‘ra shu narsa ayon bo‘ldiki, oshxona va bufetlarda talaba va o‘quvchilar haqidan urib qolish, taomlarni me’yoridan kam suzib berish, kamomad, sifatsiz ovqat tayyorlash, shuningdek, xizmat ko‘rsatish madaniyati pastligi, nazorat kassa apparati o‘rnatilmaganligi, tarozilar yetishmaganligi va davlat ko‘rigidan o‘tkazilmaganligi, idish-tovoqlar yetishmaganligi va oshxona xodimlarining tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmaganligi kabi bir qancha nuqson va kamchiliklar topilgan [6, B.7]. Xo‘randalar uchun o‘ta yaroqsiz va sanitariya nazoratidan o‘ta olmagan oshxona, kafe va bufetlar davlat tomonidan yopib yuborilgan. Ushbu jarayonga o‘ta olmagan, kasodga uchragan ovqatlanish maskankarining ko‘plari faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi yoki o‘z joylarini boshqa tadbirkorlik markaziga aylantirdi.

Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Jumladan, xususiylashtirish jarayoni natijasida ovqatlanish shahobchalari soni yildan-yilga ortdi. Yaroqsiz holatga kelib qolgan oshxona, choyxona, kafe va restoranlar davlat sektoridan chiqarilgach, ularning ba’zilari o‘z nomi ostida faoliyat yuritdi va boshqalari esa yangi nom ostida yoki yangi sohada ish faoliyatini boshladi. Masalan Farg‘ona viloyatidagi yirik restoranlar: “Marg‘ilon” “Farg‘ona”, “Turon” va “Qo‘qon” restoranlari SSR davridan beri mavjud va hozirgi kunda to‘liq xususiylashgan holda o‘z faoliyatlarini yuritishmoqda. Xususiylashtirish jarayoni natijasida ovqatlanish korxonalari o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllandi. Bu esa o‘z navbatida xizmat ko‘rsatish va taomlar sifatini oshishiga olib keldi. Yevropa va milliy taomlar integratsiyalashuvi yuzaga keldi. Buning natijasida yangicha taomlar assortimenti paydo bo‘ldi. Yevropa taomlari bilan birga zamonaviy xizmat ko‘satish madaniyati ham kirib keldi, keyinchalik esa onlayn yetkazib berish xizmati ham yo‘lga qo‘yildi, natijada yangi ish o‘rinlari soni ortdi. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar berildi. I.Karimov ta’kidlaganidek, iqtisodiyotni siyosatdan ustun qo‘yib, aholini bozorga o‘tish davrida ijtimoiy-himoya qilish konsepsiyasi tuzilgan va ko‘p yilga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilgan [7, B.18-50].

Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida tadbirkorlar oldida ushbu masalalar ko‘ndalang qo‘yilgan:

Dastlabki davrda umumiy ovqatlanish korxonalari egalariga mijozlar ehtiyojlarini va xohishlarini muntazam ravishda tahlil qilish va baholash tavsiya etilgan. Bu mijozlar qoniqish darajasini oshirishda yordam bergan. Jumladan: Muntazam treninglar va seminarlar orqali xodimlarning mijozlar bilan muloqot ko‘nikmalarini va mahsulot bilimlarini oshirish;

- navbatlarni boshqarish tizimlarini joriy etish va xizmat jarayonlarini optimallashtirish;
- Ta’minot zanjirini ishonchli va barqaror qilish uchun ta’minotchilar bilan uzoq muddatli hamkorliklar o‘rnatish;
- Mahsulotlar sifatini doimiy ravishda tekshirish va nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish;
- Oshxona va ovqatlanish maydonchalarini doimiy tozalash va sanitariya talablariga rioya etish;
- Yangi ovqatlanish trendlari va iste’molchilar xohish-istaklarini tahlil qilish;
- Umumiy ovqatlanish korxonalariga qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga qat’iy rioya qilish.

- *Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).* 1991–2000-yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni O‘zbekistonda, jumladan Farg‘ona vodiysi hududida umumiy ovqatlanish tizimining mazmunan va tashkiliy jihatdan tubdan yangilanishiga sabab bo‘ldi. Davlat tasarrufidagi oshxona, choyxona va restoranlar bosqichma-bosqich xususiylashtirilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari shakllandi, natijada mulkchilik shakllari xilma-xillashdi va boshqaruvning markazlashgan modeli o‘rnini bozor mexanizmlari egalladi. Dastlabki yillarda inflyatsiya, xomashyo taqchilligi va aholi daromadlarining pasayishi soha faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, raqobat muhitining paydo bo‘lishi xizmatlar sifati va turlarining kengayishiga, milliy hamda xorijiy taomlar assortimentining boyishiga olib keldi. Umuman, mazkur davr umumiy ovqatlanish tizimining ma’muriy-buyruqbozlik modelidan bozor tamoyillariga asoslangan, moslashuvchan va raqobatbardosh tizimga o‘tish bosqichi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
2. Abdujabborov A.A. Dastyor fabrika // Komunna. – 1991.
3. Abdujabborov A.A. Dastyor fabrika // Komunna. 1991-yil 13-aprel.
4. Safayeva S. Umumiy ovqatlanish korxonalarining mijozlar qoniqishi va xizmat ko‘rsatish sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik // Soliq va hayot. – Toshkent, 2023. - № 4.
5. Najmiddin Ikromiy. Taom bor joyda… - Savdogar, 1995, 24-yanvar №4(97) son.
6. O‘z. Res. Davlat soliq qo‘mitasi matbuot xizmati. Ham xo‘rdadan, ham burdadan..// Savdogar.1995-yil 14-fevral.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. Toshkent: O‘zbekiston,1995.